

“BOBURNOMA” DA KOBUL VOQEALARINING TARIXIY VA BADIY TALQINI

*Farg'ona davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi
Marjona Solijonova Sadirdin qizi*

Anotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida Kobul voqealarining tarixiy asoslari va badiiy talqinini o'rganishga bag'ishlanadi. Bobur Kobulni 1504-yilda egallashi, u yerda 1526-yilgacha hukmronlik qilishi, G'azna, Qandahor kabi hududlarda olib borgan harbiy-siyosiy faoliyati “Boburnoma”dagi real voqealarga tayangan holda yoritiladi. Maqola Boburning o'z ko'zi bilan ko'rgan voqealarni, ya'ni Kobulning ijtimoiy hayoti, geografik manzaralari, iqtisodiy sharoiti va davlat boshqaruvi jarayonlarining badiiy talqinini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Boburnoma, Kobul, tarixiy faktlar, siyosiy jarayonlar, realistik tasvir, temuriylar, harbiy yurishlar, Bobur, Kobul amirliklari.

Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yozilgan “Boburnoma” o'z zamonining eng ishonchli tarixiy manbalaridan biridir. Asarda XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi Movarounnahr, Afg'oniston, Hindiston hududlaridagi siyosiy vaziyat, amirliklar o'rtasidagi kurashlar, ijtimoiy hayot hamda hukmronlik faoliyati eng aniq fafakkur bilan qayd etilgan. Ayniqsa, Kobul voqealari “Boburnoma”ning markaziy qismida muhim tarixiy sahifalarni tashkil qiladi. Chunki Bobur Kobulni 1504-yilda egallab, bu shaharda 22yil davomida barqaroq hokimiyat o'rnatgan, noyob madaniy muhitni shakllantirgan hamda Hindistonga yurish uchun kuch to'plagan.

1498-1501-yillar davomida Boburning Andijon, Farg'ona, va Samarqand taxti uchun Shayboniyxon bilan olib borgan kurashlari muvaffaqiyatsizlik tugadi. “Boburnoma”da qayd etilishicha, u 1501-yil kuziga kelib Movarounnahr hududida mustahkam tayanchdan mahrum bo'lgan. Aynan shu siyosiy bosim Bobur janubga-Afg'oniston tomon yo'l olishga undaydi.

“Boburnoma”da yozilishicha, Bobur 1504-yilda Qandahordan o'tib, Kobulga yetib keladi. Bu vaqtda shahardan hukmdor Abu Sa'id Mirzo avlodidan biri - Ulug'bek Mirzo vafot etgan, amirlar o'rtasida hokimiyat boshlig'i yuzaga kelgan edi. Asarda aynan shu siyosiy bo'shliq Boburning Kobulni qonsiz tarzda egallashiga zamin yaratgani aniq keltirgan. Kobul amirlaridan Qambar Ali Ko'kaldosh va boshqa mahalliy lashkarboshi Boburni qo'llab, unga shaharni topshirgan.

Bu voqealar “Boburnoma”ning 1504-yilga oid varaqlarida shunday qayd etiladi: “Kobul ahli bizni hushnudlik bilan qabul qildi”. Bu jumla Boburning hukmronlikka kelishi zo'ravonlik bilan emas, balki mahalliy kuchlar tomonidan qo'llab-

quvvatlanganini tasdiqlovchi aniq tarixiy fakt hisoblanadi. Kobul Boburning siyosiy qarorgohiga aylangan va u shu yerda o'ziga xos mustaqil davlat barpo etgan. "Boburnoma"da qayd etilishicha, Kobulga qo'shilgan hududlar quyidagilar edi: G'azna, Parvon, Qandahor. Bobur o'sha paytda Kobulni mustahkamlab, shimoliy tog' dovonlarini mudofaa chizig'i sifatida tayyorlagani "Boburnoma"da ochiq keltiriladi. Bobur Kobulda hukmronlik qilgan yillar davomida soliqlarni tartibga soldi, Kobul atrofida bog'lar barpo qildi va Kobul Boburning sevimli shaharlaridan bo'lib qoldi. Asarda "Bog'i Kalon", "Bog'i Dilkusho", "Bog'i Vafo" kabi Bobur tomonidan qurilgan bog'larning nomi aniq qayd etilgan. Bu bog'lar keyinchalik Bobur me'morchiligi va bog'dorchiligi tarixida muhim o'rin tutdi.

Bobur o'z asarida Kobulning tabiatini, iqlimini, suv manbalarini o'ta aniq tarzda tavsiflaydi. Bu tasvirlar tarixiy geografiya uchun katta manbadir. Masalan, Kobul vodiysidagi qaymoqdek qalin qor, shaffof havoli tunlar, mevalarning seroblighi haqida yozilgan satrlar bevosita kuzatuvlarga asoslanadi.

Bobur Kobul mevalaridan uzum, olcha, olma, nok, shaftoli, anor, anjirlarni nomma-nom sanab o'tadi. Bundan tashqari, nayshakarni shaxsan o'zi keltirib ekanini ham aytib o'tadi. Bu faktlar keyinchalik ingliz sharqshunosi Annette Beveridge tomonidan ham tasdiqlangan. Shuningdek, Kobulda qo'shinlar tuzilmasi, amirlarning roli, afg'on qabilalari hadiqa ham ma'lumotlar "Boburnoma"da aniq ko'rinishda berilgan.

"Boburnoma"ga ko'ra, Bobur Kobulni egallaganidan so'ng eng avvalo moliya tizimini tikladi. Soliq yig'ish tartiblarini aniq belgilab qo'ydi. Asarda har bir qishloqdan tushadigan daromadning qaysi qismiga nechta askar boqilishini yozib qoldirgan. Bu juda muhim istisodiy tarixiy fakt.

Shuningdek, Bobur Kobulda 14ta tuman borligi va bu yerdagi aholi 12ta tilda so'zlashishini alohida qayd etadi. Bu ma'lumot Kobulning ko'p millatli markaz bo'lganligini tasdiqlaydi. Ushbu asarda keltirilishicha, Bobur Hindistonga yurish uchun aynan Kobulni tayanch sifatida tanlagan, chunki Kobul Hindiston va Xurosonni bog'lab turuvchi vosita edi. Kobuldan chiqib, Panjob sari o'tlanadi va shu yurish natijasida 1526-yilda Panipat jangida lo'diylar ustidan g'alaba qozonadi.

"Boburnoma"da Kobul voqealari nafaqat tarixiy ma'lumot sifatida, balki yuksak badiiy idrok mahsuli sifatida ham berilgan. Bobur sodda, aniq, juda ravon til bilan yozadi. Shu bois asarda badiiylik voqealarning tabiiy tasvirida, inson xarakterining sodda berilishida namoyon bo'ladi.

Boburning Kobul voqealarini yozishi ikki qatlamni o'z ichiga oladi:

1. Tarixiy qatlam - voqelik, qonuniyatlar, siyosiy jarayonlar.
2. Badiiy qatlam - shaxsiy kechinma, tabiat tasviri, xalq hayoti, obrazli ta'riflar.

Bu ikki qatlamning uyg'unlashuvi asarni Sharq tarixshunosligi va adabiyotidagi eng realistik asarlardan biriga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma". - O'zbek tilidagi to'liq nashrlar.
2. Sodiqov, Q. Z.M. Boburbva uning tarixiy faoliyati. - Toshkent.
3. Ahmedov, B. O'zbekiston tarixidan lavhalar. - Toshkent.
4. Beveridge, Annete. The Baburnama. - London, 1992.

